

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**



**“JISMONIY MADANIYAT SOHASIDA TA‘LIM VA  
O‘QITISH SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

**«СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КАЧЕСТВА  
ОБРАЗОВАНИЯ И ПРЕПОДАВАНИЯ В  
СФЕРЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ  
И СПОРТА: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ»**

Материалы международной научно-практической конференции

**“IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION  
AND TEACHING IN THE FIELD OF PHYSICAL  
EDUCATION AND SPORTS: PROBLEMS AND SOLUTIONS”**

Materials of the International scientific and practical conferences

**Urganch, 24-25 may 2024 yil**

**Urganch-2024**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

---

---



**“JISMONIY MADANIYAT SOHASIDA TA’LIM VA  
O‘QITISH SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi**

**M A T E R I A L L A R I**

**Urganch, 24-25 may 2024 yil**

**Urganch – 2024**

**Xulosa.** Talabalarning valeologik madaniyatini shakllantirish shaxsning umumiy madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu transformativ faoliyatning shaxsning potentsial imkoniyatlarini rivojlantirishga, uning individualligini shakllantirishga ta'siri bilan oqlanadi. Darhaqiqat, faoliyat jarayonida o'quvchi shaxsiy rivojlanish uchun asos bo'lgan qo'shimcha natijalarni oladi: yangi bilim, tajriba, munosabatlar, ehtiyojlar, maqsadlar, motivlar, qiymat yo'nalishlari, ya'ni o'zini o'zi takomillashtirish uchun zarur shartlar.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1 Demin M.V. Faoliyatning tabiati / M.V. – M.: Moskva davlat universiteti nashriyoti, 2005. – 168 b.

2 Bezrukix M. M. Maktab xavf omillari va bolalar salomatligi / M. M. Bezrukix // Tolerantlik pedagogikasi. – 2009. – No 31. – B. 87 – 94.

### **VOLEYBOL SPORT TURI MISOLIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY FAOLIYATLARIDA INNOVATSION KLASTER METODINI QO'LLASH SAMARADORLIGI**

*Sh. Boltayev (ChDPU)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida klaster usulini innovatsion yondashuv asosida qo'llash, shuningdek, u orqali voleybolchilarning texnik mahoratini oshirish, o'quv jarayonini samarali tashkil etish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Klaster, jismoniy tarbiya va sport, voleybol sporti, yosh voleybolchilar, mashg'ulot jarayoni, texnika, mahorat, innovatsiya, usul.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasini isloh qilishdagi asosiy maqsadlaridan biri – pedagog kadrlarni zamon talablariga mos tarzda tayyorlash, har tomonlama rivojlangan barkamol shaxslarni tarbiyalashdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-sonli "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 355-son qarorida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha bir necha vazifalar belgilab berildi.

Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur? Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ushbu muammo bo'yicha ko'plab pedagog va psixolog olimlar o'z fikr va mulohazalari bilan chiqdilar. O'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini milliy an'ana va urf-odatlarimizdan, qadriyatlarimizdan kelib chiqib yanada takomillashtirish, ularning pedagogik faoliyatini hozirgi zamon talablari darajasida yanada takomillashtirish uchun metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar paydo bo'ldi. Hozirgi kunda ham ushbu muammo bo'yicha ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda.



Fan va texnikaning shiddat bilan rivojlanishi natijasida barcha sohalarga joriy qilinayotgan innovatsiyalarning maqsadi, pirovardida mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini oshirishga qaratilgan, tayyor andozalarni olish, ulardan ijodiy foydalanish yaxshiroq natija beradi. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlarida xalqaro tajribada sinalgan va mamlakat iqtisodiyotining ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etuvchi innovatsion tajribalarni qo'llashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ana shunday innovatsiyalardan biri "**klaster modeli**" hisoblanib, bugungi kunda u mamlakatimizda ayniqsa agrar, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik va yengil sanoat sohalarida keng qo'llanilmoqda. Qisqa muddatlar ichida klaster modeli iqtisodiyotda istiqbolli innovatsion yo'nalish sifatida e'tirof etildi va ushbu modelni boshqa sohalarda qo'llash tajribalari amalga oshirilmoqda.

**Metodologiyasi.** Ta'limga nisbatan klaster yondashuv borasidagi tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish bu boradagi bir qancha qarashlarni jamlashga imkon berdi. Demak, klaster yondashuvi bu:

- alohida soha (ta'lim, iqtisodiyot va b.) bo'lib, raqobatbardosh samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo'lgan sohalarni birlashishning tashkiliy shakllarini kuchaytirish mexanizmi;

- ixtiyoriy komponentlar qatorida o'zining to'liq funksional ishchanlik qobiliyatini saqlaydigan bir nechta teng huquqli bo'laklardan iborat bo'lgan tuzilma;

- ta'lim-fan-ishlab chiqarish tizimida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashni shakllantirish vositasi;

- tashkilotning kelajak iqtisodiyoti uchun kadrlar salohiyatini shakllantirishni tashkil qilishning innovatsion samarali usuli;

Rus olimlari tomonidan ta'lim klasterlarini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy asoslarini o'rganish quyidagi yo'nalishlarda olib borilgan:

- a) kasbiy ta'limga nisbatan klaster yondashuvi (B.Pugacheva, A.V.Leontiyev);


Ta'kidlash joizki, ushbu sohalarni qatori Jismoniy tarbiya va sportga ham davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga joriy etilgan "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishini amalga oshirishga mo'ljallangan harakatlar strategiyasi", ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy sohada joriy etilgan Prezidentimizning beshta tashabbusi, 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-sonli qarori, 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-sonli farmoni va boshqa shu kabi konseptual hujjatlar talablari doirasida shakllanib bormoqda.

Ma'lumki, sport o'yinlarida, shu jumladan voleybol sport turida ham barcha texnik-taktik harakatlarni favqulotli va o'zgaruvchan vaziyatlarda tezkor shiddat asosida ijro etish talab qilinadi. Binobarin, voleybol sport turi bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish, texnik-taktik harakatlarga o'rgatish jarayonida tezkorlik sifatini keskin o'zgaruvchan yo'nalishli mashqlar yordamida muntazam

shakllantirib borish maqsadga muvofiq. Yosh sportchilarni tayyorlash va ularning mahoratini oshirish uchun, sport mashg'ulotlarining qanday tashkil qilish va o'tkazishga bog'liqdir. Sport mashg'ulotlarini tashkil qilishda, sportchilarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganish, texnik va taktik tayyorgarligini bilish zarurdir. shu bilan birgalikda yosh voleybolchilar misolida tezkorlik sifatini rivojlantirishda innovatsion mazmunli harakatli o'yinlar va ixtisoslashtirilgan pedagogik texnologiyalardan kengroq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida aytilgan fikrlarni to'laqonli amalga oshirish uchun murabbiydan kerakli bilim va mahorat talab qilinadi. Yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratildi, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik hamda vatanparvarlik, ona-Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish va maqsadli tayyorlash ishlarini tizimli tashkil etish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Voleybolchilarni samarali tayyorlash texnologiyasi o'quv-mashg'ulot jarayonini rejalashtirish va boshqarish, jismoniy hamda texnik-taktik tayyorgarlik darajasini baholash, sport natijalarini shakllantirish, musobaqa oldi tayyorgarlik va musobaqa faoliyatini nazorat qilish bo'yicha samarali tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Quyida voleybol sport turi bo'yicha klaster modeli ishlab chiqilgan. Ushbu modelda voleybol sport turiga oid atamalardan foydalangan holda voleybolchilarning fikrlash doirasi va qiziqishini oshirish maqsad qilingan.

### KLASTER METODI



**Xulosa.** Jismoniy tarbiya va sport sohasida kutilayotgan har qanday innovatsion, ilmiy-texnologik taraqqiyot, bitiruvchi kadrlar salohiyati, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarda rejalashtirilayotgan yangi fan yo'nalishlarining majmuaviy (diagnostik) nazorat va korreksion faoliyat mazmundorligi bilan bog'liq. Innovatsion yo'nalishda yaratiladigan har qanday ishlanma sohaning ilmiy-metodik, boshqaruv, jismoniy tarbiya o'qituvchilari va sport trenerlar uchun faoliyat dasturi bo'lib xizmat qiladi.



Bugungi kunda respublikamiz sharoitida oliy ta'lim tizimida shunday yangi mexanizm yaratilishi hayotiy zaruratga aylandiki, unda ta'lim turlari o'rtasida o'zaro nazorat ham, raqobat ham, manfaatlarning qondirilishi ham ta'minlanishi zarur. Oliy ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda ta'lim, fan va ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi tarqoqlik bugungi kunda uzluksiz pedagogik ta'limni klaster rivojlanish modeliga o'tkazish zaruratini taqazo etmoqda.

Voleybol sport turi bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish, texnik-taktik harakatlarga o'rgatish jarayonida tezkorlik sifatini keskin o'zgaruvchan yo'nalishli mashqlar yordamida muntazam shakllantirib borish maqsadga muvofiq. Yosh sportchilarni tayyorlash va ularning mahoratini oshirish uchun, sport mashg'ulotlarining qanday tashkil qilish va o'tkazishga bog'liqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/pdfs/5841063>.

2. Mukhamedov, G. I., Khodjamkulov, U. N., Shofkorov, A. M., & Makhmudov, K. S. (2020). Pedagogical education cluster: content and form. ISJ

3. Болтаев Ш.Э. Ёш волейболчиларни инновацион ёндашув асосида машгулот жараёнини ташкил этиш// // Муғаллим ҳем узликсиз билимлендириў. Илимий-методикалык журнал– Нукус, 2022. – № 1. 87-92 б.

4. Sh.E.Boltayev, M.E.Choriyeva. Ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish masalalari// The Journal of Academic Research in Educational Sciences (ARES). – Vol. .3 – №7 , 2022. – P. 10-14.

5. Sh.E.Boltayev, Sh.A.Abdurahmonov, F.B.Qo'ziyeva. Umumta'lim maktab o'quvchilarida klaster usulini qo'llash orqali jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirish// The Journal of Academic Research in Educational Sciences (ARES). – Vol. .3 – №12 , 2022. – P. 339-342.

6. Boltayev Sh. Vocational guidance of future physical education teachers based on the cluster approach // International bulletin of applied science and technology 2022. Vol. 2 Issue 12, pp. 261-263.

7. Boltayev Sh. Yosh voleybolchilarni texnik taktik harakatlarga o'rgatishda innovatsion klaster metodini qo'llash samaradorligi// "Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar". Халқаро илмий-амалий конференция, Бухоро, 2022., 192-194 б.

37.	<i>B.J.Yadgarov, D.B.Yadgarov.</i> Oliy ta'lim muassasalari talabalarining jismoniy tayyorgarlik darajasini tahlil qilish	139
38.	<i>A.E.Madaminov, R.E.Madaminov.</i> Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarning ilmiy faoliyatini tashkil etish mezonlari	142
39.	<i>A.K.Masharipov.</i> Piyoda yurish turizmi talaba yoshlarni jismoniy faolligini oshirish vositasi sifatida	146
40.	<i>M.M.Azizov.</i> Динамика показателей дыхательной системы у студентов, занимающихся скандинавской ходьбой	149
41.	<i>D.B.Yadgarova.</i> Valeologik madaniyatni rivojlantirishda aksiologik va akmeologik yondashuvlar.	153
42.	<i>A.P.Abdulaxatov.</i> Кураш аънаналари, урф-одатларини талаба ёшларга ўргатиш масалалари	156
43.	<i>D.B.Yadgarova.</i> Kelajak o'qituvchilarning valeologik tarbiyasini zamonaviy usullaridan foydalanib o'tishi	161
43.	<i>Sh. Boltayev.</i> Voleybol sport turi misolida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyatlarida innovatsion klaster metodini qo'llash samaradorligi.	163
44.	<i>Ш.М.Жураев.</i> Педагогические тенденции в подготовке студентов к профессиональной деятельности.	167
45.	<i>S.R.Qodirov.</i> Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini estetik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	170
46.	<i>У.С.Дусанов.</i> Значение спортивно-оздоровительного туризма в оздоровлении студенческой молодежи	174
<b>III SHO'BA. JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA FIZIOLOGIK, PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR VA FANLARARO INTEGRATSIYALASHUV MASALALARI</b>		
<b>СЕКЦИЯ 3. ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ, ПЕДАГОГО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ВОПРОСЫ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАНЯТИЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРОЙ И СПОРТОМ</b>		
<b>SECTION 3: PHYSIOLOGICAL, PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL APPROACHES AND ISSUES OF INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN INCREASING THE EFFECTIVENESS OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS</b>		
51.	<i>Pahulych Oleh, Aloshyna Alla, Chernozub Andrii, Marionda Ivan, Hlukhov Ivan, Potop Vladimir, Yang Haojin.</i> The main problems of workload correction for adolescent athletes in bodybuilding	177
52.	<i>Shtefiuk Ivan, Zavizion Oleksandr, Hryhoriev Vladyslav, Kulakov Oleksandr, Kretsnyi Oleksandr, Syvokhop Eduard.</i> Patterns of changes in indicators of special physical training of athletes in mixed martial arts.	180
53.	<i>S.U.Ibraximov.</i> Bo'lajak sport murabbiylarini guruh a'zolari orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga tayyorlashda akmeologik yondashuvning didaktik imkoniyatlari	184
54.	<i>A.K.Sharipov, X.U.Bekchanov.</i> Jismoniy madaniyat darslarini samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni	187
55.	<i>X.Meyliyev, S.Umarov.</i> Kurashchilar tayyorgarlik tomonlarining o'zaro uyg'unlashuvining asoslari	190
56.	<i>X.K.Matniyazov.</i> Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining uzluksiz pedagogik amaliyoti jarayonida kasbiy mahoratini shakllanishining asoslari.	195
57.	<i>I.X.Qulimuratov.</i> Futbol hakamlarining jismoniy tayyorgarligini oshirish	